

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARDA YARATILGAN IMTIYOZLARNING XORIJIY INVESTITSİYALARING JALB ETISHDAGI O'RNI

Orzuqulova Z. A.qizi SamDUmagistri

Mamlaktimiz iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda erkin iqtisodiy hududlarning yaratilishi dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur maqsadda erkin iqtisodiy hududlarda joriy etilayotgan imtiyozlarning dunyo davlatlaridagi holat bilan solishtirish natijasida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini yanada takomillashtirish haqida so'z boradi.

Одновременно с развитием национальной экономики создания свободных экономических зон является очень актуальным. В статье говорится об усовершенствовании создания свободно экономических зон и предоставляемых преференций в этих зонах сравнивая их с другими странами мира.

During the rapid development of national economy creation of free economic zones is very important. This article is about improving creation of free economic zones and current preferences in this zones by comparing them with other economy for further development of national economy.

Tayanch so'zlar: *erkin iqtisodiy hudud, investitsiya soliq, bojxona imtiyozlari xorijiy investitsiyalar, savdo hududlari, eksport.*

Ключевые слова: *свободная экономическая зона, инвестиция, налог, таможня, преференция, иностранные инвестиция, торговая зона, экспорт.*

Key words: *Free economic zone, investment, tax, custom, preferences, foreign investment, trade zones, export.*

Butun dunyo miqiyosida xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytrish hamda iqtisodiy o'sish suratlari yaxshilash maqsadida xorijiy investorlarga turli xil imtiyoz va yengilliklar yaratib kelinmoqda. Bu erkin iqtisodiy zonalar misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur hududlarda soliq va bojxonaga oid yengilliklarning berilishi hudud ishlab chiqarish, eksport, import salohiyatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotining yuqori sur'atlarda o'sishiga zamin yaratmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning eng samarali yo'llaridan biri bo'lgan erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilishi mazkur hududlardagi iqtisodiy va investitsion muhitni chuqurroq o'rganishga undaydi. Erkin iqtisodiy zonalarda yaratilgan imtiyozlarning turlarini o'rganish investitsiyalar oqimini o'sishiga xizmat qilishini jahon tajribasi ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida mavzuning dolzarbligini ifodalaydi. Mamlakatda erkin iqtisodiy hududlar (EIH)soni oshib borayotgan bir paytda bu hududlarda yaratilishi lozim bo'lgan imtiyozlarni o'rganib chiqish tobora muhim bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilganligiga hali uzoq vaqt bo'lmagan bo'lsada, hozir Navoiy, Jizzax, Angren (faolyat yuritayotgan), Urgut, Xazorasp, G'ijduvon, Qo'qon, (2017 yil 12 yanvardagi Prizdent farmoniga asosan tashkil etilayotgan) kabi EIHLar mavjud. Bu hududlarning tashkil etilishi to'g'risidagi qonunlarda va xorijiy mamlakatlardagi erkin iqtisodiy zonalardagi imtiyozlarni o'rganib chiqish va o'zaro taqqoslash orqali qanday turdagi imtiyozlarni, qaysi muddatga joriy etish haqida takliflar ishlab chiqish mumkin. Shu maqsadda quyidagi davlatlarda EIHLarda qo'llaniladigan yengilliklar va imtiyozlarni ko'rib chiqsak.

Lotin Amirikasida 1957-yilda tashkil etilgan va 1967-yilga kelibgina faoliyat yuritgan Manaus EIH mamlakatda eng yirik EIH hisoblanadi. Bu EIHni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad mamlakatda sanoat, savdo va qishloq xo'jaligi markazini barpo etishdir. 1976 yil 28 fevraldagi № 288/67 dekretga asosan, hududga erkin savdo va maxsus soliq bo'yicha imtiyozlar 30 yil muddatga berilishi ko'zda tutilgan.

Manaus EIHDagi korxonalariga quyidagi imtiyozlar berilgan:

- Hudud ichida iste'mol qilish uchun mo'ljallangan import tovarlarni olib kirishda soliq to'lashdan ozod etildi;
- EIHDa ishlab chiqarilgan sanoat va iste'mol tovarlar uchun to'lanadigan soliqdan ozod etiladi (korxonalar 10 yil muddatga daromad solig'i to'lashdan ozod etildi);
- Korxonalar eksport uchun soliq to'lashdan ozod etildi va hk.

Bu imtiyozlardan tashqari Amazonas shtati hukumati 2012 yilda mazkur hududa radiotexnika tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun elektrenergiyadan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqdan 1 yil muddatga voz kechadi. Bunga sabab mazkur sohadagi krizis edi. Shuncha soliq imtiyozlari joriy etilganligiga qaramay "Manaus" EIH hukumat g'aznasiga jami shimoliy hududning 50% solig'ini topshiradi.

Hukumat tomonidan bu hududga imtiyozlarni 2003 yildan 2023 yilgacha uzaytirish tog'risida qaror qabul qilingan bo'lib, hozirda uni yana 50 yilga uzaytrish maslasi ko'rib chiqilmoqda.

Endi Belarussiya Respublikasida EIHLarda joriy etilgan imtiyozlarga to'xtalib o'tsak. Belarussiyada EIH rezidenti bo'lish uchun qator talablarga javob berish kerak. Bu talablar biroz murakkab bo'lishiga qaramasdan mavjud imtiyozlari bu hududlarda faolyat yuritshga undaydi. Bu hududlarda yaratilgan imtiyozlar quyidagilar:

- Foyda solig'i faolyat turi bo'yicha qonunda belgilangan stavkalardan 50% miqdorda lekin 12% dan kam bo'lmasligi kerak;

- QQS 10% (EIH da ishlab chiqarilgan Belarussiya hududida sotiladigan tovarlar uchun);

-EIH da joylashgan ko'chmas mulk uchun soliqdan ozod etiladi;

Belarussiyadagi bu imtiyozlar EIHdagi umumiy ovqatlanish joylari, o'yingohlar qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchilar uchun qo'llanilmaydi. Belarussiyada ishlab chiqarilgan, EIH ishtrokchisi ishlab chiqarishda qatnashgan import o'rnini bosuvchi tovarlar uchun bojxonada erkin aylanish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasida esa barcha turdagi EIHLar uchun soliq imtiyozlari mavjud. Hamma turdagi EIH rezidentlari uchun foyda solig'i bo'yicha pasaytirilgan stavkalar qo'llaniladi. Erkin iqtisodiy hududning turiga qarab rezidentlar mol-mulk solig'idan 5-10 yil muddatga ozod qilinadi. Bunda mol mulk EIHda joylashgan bo'lsa EIHda foydalanib maqsadida olingan bo'lishi va shu hududda undan foydalanilayotgan bo'lishi kerak.

Rossiyada EIH da transport solig'i bo'yicha yengilliklar joriy etilgan bo'lib, bunda xorijiy investorlar transporti bu hududda ro'yxatdan o'tkazilgan zahoti, ularga imtiyozlar amal qiladi. Bundan tashqari investorlar 5-10 yil muddatga yer solig'i tulashtirishdan ozod etiladi. EIHning turiga ko'ra qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Jumladan, sanoat-ishlab chiqarish va turistik –rekreatsion hududlarda tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llab, asosiy vositalarga o'sib boruvchi koeffitsient o'rnatilishi mumkin. Bundan tashqari Rossiyada yagona oyna (единое окно) tizimi orqali rasmiylashtirish bilan bog'liq jarayonlarni tezlashtirish yo'lga qo'yilgan. Soliq to'lashning soddalashtirilgan tizimidan foydalanilishi va ayrim davlat fondlari, jamg'armalariga to'lovlar to'lashdan ozod etilganligi, ayrim turdagi EIHLarda amortizatsiya koeffitsientlarining alohida belgilangan EIHLardagi korxonalar buxgalteriya hisobini o'ziga xos tarzda yuritilishidan darak beradi.

O'zbekiston misolida "Navoiy" EIHda joriy etilgan imtiyozlar 2008 yil 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy viloyatida erkin industrial iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi farmonida belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra:

-Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonaning (EIIZ) faolyat ko'rsatish muddati 30 yil (keyinchalik uzaytirish mumkin);

-EIIZ faolyati davomida mazkur hududda alohida valyuta, bojxona va soliq rejimlari amal qilinadi;

-Mazkur hududda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurutuvchi subyektlarda ular kiritgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya miqdoriga qarab yer, mol-mulk daromad, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi, respublika yo'l jamg'armasi va respublika maktab talimini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi.

Bunda investitsiyalar hajmiga qarab imtiyozlar quyidagi muddatlarga beriladi;

-3 million yevrodan 10 million yevrogacha – 7 yilgacha;

-10 milloin yevrodan 30 mln yevrogacha -10 yilgacha, keying 5 yil foyda solig'i ; yagona soliq to'lovi amaldagi stavadan 50% kam miqdorda buladi;

-30 mln yevrodan oshsa 15 yilga, keying 10 yilda foyda solig'i, yagona soliq to'lovi amaldagi stavadan 50% kam miqdorda bo'ladi;

Bunda tashqari eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish uchun olib kelinayotgan asbob-uskunalar, xom ashyo materiallari bojxona to'lovlaridan ozod etiladi. Bu hududlarda mulkni ijaraga berish, faoliyatni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida yagona darcha tizimi faolyati yo'lga qo'yilgan (Rossiya Federatsiyasidagi kabi).

Yuqoridagi davlatlar misolida EIHLar yaratilgan imtiyozlarni solishtirish orqali ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Soliq bo'yicha imtiyozlar
2. Valyuta bo'yicha imtiyozlar
3. Bojxona bo'yicha imtiyozlar
4. Ma'muriy jarayonlarni yengillashtirish bo'yicha qulay sharoitlarini yaratilishi bilan bog'liq imtiyozlar.

Imtiyozlarni taqdim etuvchilar tomonidan olib qaraganda davlat tomonidan beriladigan umumdavlat va mazkur EIH joylashgan mahalliy vakillar tomonidan beriladigan imtiyozlarga (Manaus misolida) bo'lish mumkin.

Yuqoridagi davlatlar miqiyosida EIHLarning faolyati 30 yilga belgilangan Manaus,Navoiy) bo'lib, bu muddat keyinchalik uzaytirilishi ko'zda tutilgan. Bu hudud faolyatining samaradorligi bilan bog'liq.

Soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni investorlarga ko'proq daromad olishni ta'minlasa ma'muriy jarayonlarni yengillashtirilishi faoliyat yuritishini osonlashtiradi. Yuqoridagi davlatlardagi imtiyozlarni inobatga olgan holda mulk va transport bilan bog'liq imtiyozlarni O'zbekistondagi EIHda qo'llanilishining ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish zarur bo'ladi.

Soliq va bojxona imtiyozlar nisbatan umumiy harakterga ega bo'lib, barcha EIHLarda mavjud. Lekin soliqlar bo'yicha imtiyozli stavkalar va bojxona, valyuta tizimidagi imtiyozlar davlatning iqtisodiy siyosati bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, imtiyozlarni davlatning iqtisodiy holati, EIH turiga qarab belgilash samarali natija beradi. Lekin har qanday holda ham soliq va bojxona bilan bog'liq imtiyozlar yetakchilik qiladi. Imtiyozlar muddatlari esa hududlar faoliyatining istiqboli bilan bog'liq ravishda uzaytirib boriladi. EIHLarda ham ishlab chiqaruvchilar ham investorlar uchun alohida imtiyozlar borasida yondashuv samarali natija berishini jahon tajribasi ko'rsatdi.